O‘zbekiston Respublikasi hududlarida maxsus iqtisodiy zonalarga investisiyalarni jalb qilishning 2030 -yilgacha bo‘lgan davrdagi rivojlanishning prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash, sanoatni modernizatsiya qilish va investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmlarini yaratish alohida urg‘u berilgan. Strategiyada maxsus iqtisodiy zonalar tizimini rivojlantirish va ularning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, shu jumladan soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari va boshqaruv tizimining soddalashtirilishi orqali xalqaro investitsiyalarni jalb etish ko‘zda tutilgan. Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) ushbu jarayonda alohida ahamiyatga ega, chunki ular maxsus soliq imtiyozlari, yengilliklar va tartibga solish orqali sarmoyalarni jalb etishning samarali vositasidir.

Institutsional-integrativ yondashuv investitsiya jarayonida nafaqat pul, balki institutlar o‘rtasidagi mustahkam munosabatlar, qoidalar va strategiyalarni ham hisobga olish imkonini beradi. Bu esa investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatini oshiradi, xavflarni kamaytiradi va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi. Ya’ni, bu model investitsiya jarayonini chuqurroq va ko‘pqirrali tushunishga yordam berib, amaliyotda samarali investitsiya siyosati yaratish uchun muhimdir.

**1-jadval**

**“Institutsional-integrativ investitsiya” modelining tarkibiy qismlari, amalga oshirish mexanizmlari va kutiladigan natijalar**

| Model tarkibiy qismi | Agentlik amaliyotida tatbiq etish mexanizmi | Kutiladigan natija | Kuzatuv ko‘rsatkichlari (mezonlar) |
|---|---|---|---|
| Institutsional boshqaruv va muvofiqlashtirish | Vakolat va mas’uliyat doirasini aniq belgilash, idoralararo o‘zaro hamkorlik tartibini mustahkamlash, ijro intizomini nazorat qilish mexanizmini joriy etish | Kelishuvlar izchil yuritiladi, mas’uliyat tarqoqligi kamayadi, qarorlar qabul qilish jarayoni barqarorlashadi | Topshiriqlarni belgilangan muddatda bajarish ulushi, kechikkan topshiriqlar soni, muvofiqlashtirishga qayta murojaatlar ulushi |
| Jarayonlarni me’yorlashtirish va xizmat sifati | Investorga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha takrorlanuvchi amallarni yagona tartib-taomillar asosida yuritish, hujjat shakllari va talablarini birxillashtirish | Xizmat ko‘rsatish sifati barqarorlashadi, ish yuritishda turlicha yondashuvlar qisqaradi, natija “shaxsga bog‘liq”likdan holi bo‘ladi | Me’yoriy muddatlarga rioya etish ulushi, hujjatlarning to‘liqlik darajasi, qayta ishlashga qaytgan hujjatlar ulushi |
| Yagona ma’lumotlar konturi va hisob yuritish | Investorlar bo‘yicha reyestr yuritish, loyihalar holatini muntazam qayd etish, uchrashuvlar va topshiriqlar bo‘yicha yagona ro‘yxat shakllantirish | Axborot tarqoqligi kamayadi, ma’lumotning dolzarbligi oshadi, tayyorgarlik ishlari tezlashadi | Ma’lumotlarni yangilash muntazamligi, reyestrdagi majburiy maydonlarning to‘ldirilish ulushi, holati noaniq qolgan ishlanmalar soni |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Hamkorlikni integratsiyalash va ekspert qo‘llovi | Davlat organlari, biznes vakillari hamda ilmiy-ekspert muassasalari bilan ishni muvofiqlashtirilgan tartibda yo‘lga qo‘yish, loyiha hujjatlarida ekspert baholashni qo‘llash | Loyiha tayyorlash sifati oshadi, texnologik asoslanganlik kuchayadi, innovatsion tarkibning ulushi ortadi | Ekspert xulosasidan o‘tgan loyihalar ulushi, taklif etilgan texnologik echimlar soni, qayta ko‘rib chiqishga yuborilgan loyihalar ulushi |
| Muammolarni bartaraf etish va eskalatsiya tartibi | Muammo yuzaga kelganda mas’ul shaxsni belgilash, bosqichma-bosqich ko‘rib chiqish va yuqori darajaga olib chiqish tartibini rasmiylashtirish, natijani qayd etish | Jarayon “tiqilib qolishi” holatlari qisqaradi, muammolar tezroq bartaraf etiladi, kelishuvlar prognoz qilinadigan bo‘ladi | Muammoni ko‘rib chiqish muddati, bir muammo bo‘yicha takroriy murojaatlar soni, muammolarni belgilangan tartibda yopish ulushi |
| Portfel asosida boshqaruv va ustuvorlikni belgilash | Investorlar va loyihalar portfelini muntazam ko‘rib chiqish, ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha resurslarni asosli taqsimlash, holat bo‘yicha yagona hisobot tartibini yo‘lga qo‘yish | Resurslar aniq ustuvorliklarga yo‘naltiriladi, boshqaruv qarorlari tezlashadi, umumiy natijadorlik oshadi | Ustuvor loyihalar ulushi, faol ishlanmalar dinamikasi, portfel bo‘yicha belgilangan muddatlarda hisobot taqdim etish ulushi |

Institutsional-integrativ investitsiya — bu iqtisodiy sub’ektlar (institutlar) tomonidan investitsiya jarayonida ularning maqsadlari, resurslari, strategiyalari va tashqi muhit omillari o‘zaro integratsiyalangan holda amalga oshiriladigan investitsiya faoliyatidir. Bu modelda investitsiya nafaqat moliyaviy kirish, balki institutsional munosabatlar, boshqaruv mexanizmlari va hamkorlik aloqalari bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi. Institutsional-integrativ investitsiya modeli investitsiya jarayonini institutsional muhit va institutlar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslab, uning samaradorligi va barqarorligini oshiradi. Hozirgi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida bu yondashuv investitsiyalarni to‘liq va kompleks tarzda boshqarish uchun zarur va muhim hisoblanadi. (1-jadval).

Modelning amaliy yo‘nalishi O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentlik faoliyatida takrorlanuvchi operatsiyalarni standartlashtirish orqali namoyon bo‘ladi. Bunda maqsad qog‘ozbozlikni ko‘paytirish emas, balki investor bilan ishlash sifatini barqarorlashtirish va xizmat ko‘rsatish natijasini shaxsga bog‘liqlikdan chiqarishdir. “Institutsional-integrativ investitsiya” modeli natijasida davlat, biznes va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlik kuchayib, investitsiya loyihalarining samaradorligi va innovatsion salohiyatini oshairish bo‘yicha taklifdan Agentlik faoliyatini strategik rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘1 xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida investitsiya loyihalarining samaradorligini 15-20 foizga oshirish imkoni yaratilgan.

Maxsus iqtisodiy zonalarda yer uchastkalari onlayn auksionga kamida 10 yil ijara muddati bilan, investitsiya majburiyatlari bajarilgandan so‘ng xususiylashtirish yoki ijara muddatini uzaytirish sharti bilan chiqarish taklifi. Ushbu taklifdan “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish

tizimini soddalashtirishga oid oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritishda foydalanilgan.

2-jadvalda maxsus iqtisodiy zonalardagi yer uchastkalarini investitsiyalarga ajratish mexanizmlari haqida batafsil tavsiflar keltirilgan. Ushbu mexanizmlar, investitsiya jarayonining har bir bosqichida amalga oshirilishi zarur boʻlgan amaliy choralar, mas'ul tomonlar va majburiyatlarni aniq belgilashga qaratilgan. Maxsus iqtisodiy zonalarda yer uchastkalarini ajratish jarayoni avvalambor, huquqiy asoslar, shartnoma tuzish va investitsiyalarning amalga oshirilishiga oid umumiy tartibni tashkil etadi. Bu bosqichda davlat organlari, maxsus iqtisodiy zona direktorlari va soliq organlari kabi mas'ul tomonlar investitsiya jarayonini nazorat qilish va tartibga solish vazifasini bajaradi. Natijada, Maxsus iqtisodiy zonalariga investitsiyalarni jalb etish mexanizmi takomillashtirilgan.

**2-jadval**

**Maxsus iqtisodiy zonalarda yer uchastkalarini investitsiya majburiyatlari bajarilgandan soʻng xususiylashtirish mexanizmi**

| Bosqich | Amaliyotdagi harakatlar | Mas'ul tomonlar | Ijro muddati / shartlari | Nazorat va sanksiyalar |
|---|---|---|---|---|
| 1. Yer uchastkasini auksionga chiqarish e'lonlari | Yer uchastkalari maxsus iqtisodiy zona direktoriyasi yoki MIZ / sanoat zona boshqaruvi tomonidan elektron onlayn-auksion platformasiga qoʻyiladi. E'londa ijara muddati, investitsiya majburiyatlari, ehtimoliy xususiylashtirish yoki ijara muddatini uzaytirish imkoniyati kabi shartlar aniq koʻrsatilishi kerak. | MIZ direktoriyasi; Hududiy hokimiyatlar | E'lon berilgandan keyin ma'lum vaqt (masalan, 15–30 kun) ishtirokchilar ilova qilish uchun. | E'lon shartlariga rioya qilish; auksion jarayoni ochiq va raqobatbardosh boʻlishi shart |
| 2. Auksion ishtirokchilari tomonidan takliflar taqdim etilishi | Qonuniy shaxslar yoki korxonalar ishtirok etishi mumkin. Ular ijara tarqatilishining boshlanish narxi, ijara haqi, investitsiya miqdori va muddati boʻyicha taklif berishadi. | Investorlar; advokat yoki yuristlar yordami bilan murojaat qiluvchilar | Takliflar suratlarida barcha shartlar berilgan boʻlishi; sun'iy toʻsiqlar boʻlmasligi | Tasdiqlovchi komissiya auksion natijalarini tekshirib, talablarga mosligini baholaydi |
| 3. Tanlangan ishtirokchi bilan shartnoma tuzish | Auksion gʻolibiga ijara shartnomasi tuziladi. Shartnomada: ijara muddati - kamida 10 yil investitsiya majburiyatlari (miqdori, loyihalar turi, muhlatlari) ijarani uzaytirish yoki uchastkani xususiylashtirish sharti infratuzilma maxsusligi soliq, bojxona va boshqa imtiyozlar | MIZ direktoriyasi; davlat-xususiy sheriklik boʻyicha vakolatli organlar; investor | Shartnoma imzolanishidan soʻng shartlarda belgilangan muddatlarda harakatlanishi zarur (masalan, 5 yil davomida investitsiya majburiyati bajarilishi) | Agar majburiyat buzilsa, ijara bekor qilinishi yoki shartnomada koʻrsatilgan jazo choralari qoʻllanilishi mumkin |
| 4. Investitsiya majburiyatlarini bajarish davri | Investor belgilangan muddatlarda: proyekt qoʻrilishi va ishga tushirilishi belgilangan ish oʻrinlari yaratilgan boʻlishi eksport yoki mahsulot hajmlari, yoki boshqa shartlar - agar shartnomada bunday boʻlsa infratuzilma kerak boʻlsa uni qurishi yoki ta'minlashi | Investor; MIZ direktoriyasi; mahalliy hokimiyatlar | Masalan, birinchi 3–5 yil ichida majburiyatlarning muhim qismi bajarilishi (misol uchun, asosiy infratuzilma, zavod qurushi, ishga tushirish) | Shartnoma boʻyicha monitoring qilinadi; kunidagi hisobotlar va tekshiruvlar oʻtkazilishi kerak |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5. Xususiylashtirish yoki ijara muddatini uzaytirish imkoniyati | Agar investitsiya majburiyatlari toʻliq bajarilsa, ijara muddati uzaytirilishi yoki yer uchastkasi xususiylashtirilishi mumkin boʻladi. Xususiylashtirish tarifi va shartlari oldindan belgilangan boʻlishi kerak. | Maxsus iqtisodiy zona direktoriyasi, davlat mulkini boshqaruv organi, soliq va huquqiy organlar | Uzaytirish yoki xususiylashtirish uchun ariza, loyihaning baholangan natijalari, iqtisodiy samaradorlik asosiy shartlar boʻlishi kerak | Qonuniy ravishda tekshirishlar; davlat auditlari; davlat kafolatlari va yuridik hujjatlar boʻyicha xavflarning mavjudligi tekshiriladi |
| 6. Nazorat, monitoring va sanksiyalar | Yer uchastkalaridan foydalanish, investitsiyasi, ijara toʻlovlari va shartnomadagi barcha majburiyatlarga rioya qilinishini tahlil qilish. Agar shartnomada koʻrsatilgan majburiyatlar bajarilmasa, yer uchastkasi davlatga qaytariladi yoki yangi auksionga chiqariladi. | MIZ direktoriyasi; mahalliy hokimiyat; davlat nazorat organlari (adliya, soliq, oʻz boʻyicha) | Nazorat davriylikda - har yil, yarim yilda bir tekshiruv Shartnomadagi shartlar buzilsa - belgilangan muddatlar davomida sanksiyalar qoʻllanishi | Sanksiyalar: ijara bekor qilinishi, jarima, soliq va bojxona imtiyozlarini yoʻqotish, yer uchastkasi qayta auksionga chiqarilishi |

Manba: muallif ishlanmasi.

Maxsus iqtisodiy zonalar oʻrtasida imtiyoz va preferensiyalarini qoʻllashda hudud xususiyati va imkoniyatidan kelib chiqib hududiy koeffitsiyentlarni joriy etish orqali investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish taklifi asoslangan. Hududiy koeffitsientlarni joriy etish — MIZlarda imtiyoz va preferensiyalarni hududning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga moslashtirish orqali investitsiyalarni maqsadli jalb qilish hamda barqaror va teng iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan ilmiy yangilik boʻlib, bu orqali Oʻzbekistonda iqtisodiy zonalar faoliyatining samaradorligi sezilarli darajada oshadi (3-jadval).

**3-jadval**

**Hududiy koeffitsientlardan foydalanish asosida soliq imtiyozlarini differensiallashtirish mexanizmi**

| Hududiy rivojlanish darajasi | Hududiy koeffitsient diapazoni | Hudud tavsifi | Bazaviy soliq imtiyozi % | Koeffitsient asosida shakllangan soliq imtiyozi% | Imtiyozlarning iqtisodiy faollikka ta’siri | Kutilayotgan iqtisodiy samara |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Yuqori rivojlangan hududlar | 0,8 | Rivojlangan infratuzilma, yuqori investitsion jozibadorlik, etarli bozor va kadrlar salohiyati mavjud hududlar | 10 | 8 | Preferensiyalar hajmining qisqarishi resurslardan samarali foydalanishni ragʻbatlantiradi | Iqtisodiy faollikning 5–7% ga oshishi |
| Oʻrtacha rivojlangan hududlar | 1,0 | Iqtisodiy rivojlanish darajasi oʻrtacha, infratuzilma va bozor imkoniyatlari muvozanatlashgan hududlar | 10 | 10 | Bazaviy imtiyozlar investitsiyalarni barqaror qoʻllab-quvvatlaydi | Iqtisodiy faollikning 7–10% ga oshishi |
| Past rivojlangan hududlar | 1,2 | Iqtisodiy rivojlanish darajasi past, infratuzilma cheklangan, investitsion faollik sust hududlar | 10 | 12 | Kuchaytirilgan preferensiyalar investitsiyalar va tadbirkorlikni ragʻbatlantiradi | Iqtisodiy faollikning 10–15% ga oshishi |

3-jadval hududiy koeffitsientlardan foydalanish orqali soliq imtiyozlarini differensiallashtirish mexanizmini ifodalaydi. Hududiy koeffitsient 0.8 dan 1.2 gacha boʻlishi mumkin,0.8 — iqtisodiy rivojlanishi yuqori boʻlgan infrastruktura va imkoniyatlari yaxshi hududlarda imtiyozlar miqdori kamaytiriladi (yaʼni kamroq preferensiyalar beriladi).1.0 — oʻrtacha darajadagi hududlar uchun bazaviy imtiyozlar miqdori.1.2 — orqa qolgan, iqtisodiy rivojlanish darajasi past boʻlgan hududlar uchun imtiyozlar maksimal darajada oshiriladi. Hududiy koeffitsientlarning 0.8–1.2 oraligʻida belgilanishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda davlat tomonidan beriladigan imtiyozlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.Natijada, hududiy koeffitsiyent 0.8 dan 1.2 gacha boʻlgan holatda iqtisodiy faollik 5-15 foizga oshishi kuzatilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi hududlarida maxsus iqtisodiy zonalarga investisiyalarni jalb qilishning 2030-yilgacha boʻlgan davrdagi rivojlanishning prognoz koʻrsatkichlari Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan Oʻzbekiston iqtisodiyotini uzoq muddatli rivojlantirish staregiyasini amalga oshirishning xuquqiy asoslarini takomillashtirishga oid qonun ijodkorligi faoliyatida foydalanilgan. Xususan, MIZlarda ushbu omillarning uygʻunlashtirilishi investitsiya oqimlarini koʻpaytirish bilan birga, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish oʻrinlari yaratish imkonini beradi[14]. Mazkur jarayonni chuqurroq oʻrganish uchun ilmiy adabiyotlarda koʻpincha ekonometrik modellar qoʻllaniladi. Bunda asosiy maqsad – investitsiyalar hajmini aniqlovchi oʼzgaruvchilarni oʻzaro bogʻliqlikda tahlil qilish va kelgusi davr uchun prognozlashdir.

Bizning fikrimizcha, Oʻzbekiston sharoitida ham MIZlarning samaradorligini oʻrganishda sintetik nazorat metodologiyasi va boshqa ilgʻor econometrik usullarni qoʻllash katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki ilmiy tadqiqotlarga asosan, bunday metodlar orqali investitsion oqimlarni aniqroq oʻlchash, hududlar boʻyicha solishtirish va investitsion siyosatning samaradorligini baholash mumkin boʻladi. Natijada, faqat MIZlarning mavjud natijalarini emas, balki ularning potensial taʼsirini ham prognoz qilish imkoniyati yaratiladi. Ekonometrik model boʻyicha barcha oʻzgaruvchilar ifodalangan (4-jadval).

**4-jadval**

**Ekonometrik model boʻyicha oʻzgaruvchilarining tasnifi**

| № | Oʻzgaruvchilar nomi | Tasnifi | Logorifmik qiymati |
|---|---|---|---|
| 1 | Iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar | Natijaviy oʻzgaruvchi | ***Ln_inv*** |
| 2 | MIZ soni | Mustaqil oʻzgaruvchi | ***ln_MIZ*** |
| 3 | MIZ korxonalar soni | Mustaqil oʻzgaruvchi | ***ln_KS*** |
| 4 | MIZ sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish | Mustaqil oʻzgaruvchi | ***ln_SMH*** |
| 5 | MIZ eksport hajmi | Mustaqil oʻzgaruvchi | ***ln_eks*** |

2023-2024 yillardagi keskin oʻsish Oʻzbekiston MIZlarida xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratilgani, tartib-taomillar soddalashtirilgani va biznes yuritish sharoitlari yaxshilangani bilan izohlanadi.

Bu esa uzoq muddatda MIZlarning iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror oʻsishni ta’minlashdagi strategik rolini yanada kuchaytiradi.

5-jadval

**Iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning MIZ ta’siridagi oʻzgarish prognozlari**

| № | Yil | Iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiya, mlrd som | MIZ soni, ta | MIZ korxonalar soni, ta | MIZ sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, mlrd so’m | MIZ investitsiya | MIZ eksport, mlrd so’m |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **2025** | 498125.84 | 21 | 856 | 48454.92 | 7318.02 | 76256.5 |
| 2 | **2026** | 555901.01 | 22 | 933 | 55454.57 | 8084.01 | 90037.8 |
| 3 | **2027** | 613676.17 | 22 | 1010 | 62454.21 | 8850.00 | 103819.2 |
| 4 | **2028** | 671451.34 | 24 | 1087 | 69453.86 | 9615.93 | 117600.3 |
| 5 | **2029** | 729226.50 | 27 | 1164 | 76453.50 | 10381.98 | 131382.8 |
| 6 | **2030** | 787001.67 | 28 | 1241 | 83453.15 | 11147.96 | 145163.0 |

Manba: Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

Prognoz natijalariga koʻra, 2025–2030 yillarda Oʻzbekistonda iqtisodiyotga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oʻsishi kutilmoqda: 2025-yildagi 498,1 trillion soʻmdan 2030-yilda 787,0 trillion soʻmga yetishi prognoz qilinmoqda. Shu davrda Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) soni 21 tadan 28 taga koʻpayadi, bu esa mamlakat investitsion siyosatida MIZlarni rivojlantirish muhim yoʻnalish sifatida koʻrilayotganini koʻrsatadi. Bizning fikrimizcha, MIZlar sonining muntazam ortib borishi, avvalo, xorijiy va mahalliy investorlar uchun barqaror huquqiy-institutsional sharoit yaratilishini, shuningdek, hududiy iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan siyosatning natijasini anglatadi.MIZ korxonalarining soni prognoz davrida 856 tadan 1241 tagacha koʻpayishi kutilmoqda, ya’ni deyarli 1,5 barobar oʻsish. Shu bilan birga, MIZlarda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari hajmi 2025-yildagi 48,5 trillion soʻmdan 2030-yilda 83,4 trillion soʻmgacha oʻsishi kutilmoqda. Bu esa MIZlarning nafaqat investitsiyalarni jalb qilish, balki ichki ishlab chiqarishning kengayishida ham muhim drayverga aylanayotganini koʻrsatadi. Ilmiy tadqiqotlarga asosan, bunday oʻsish MIZlarda ishlab chiqarish klasterlarining shakllanishi, ilgʻor texnologiyalarni jalb etish va eksportbop mahsulotlar ulushining oshishi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Prognoz natijalari shuni koʻrsatadiki, MIZlar investitsion faoliyatda eksport yoʻnaltirilgan modelni kuchaytiradi. 2025-yilda MIZlardan eksport hajmi 76,2 trillion soʻmni tashkil etishi kutilsa, 2030-yilda bu koʻrsatkich 145,1 trillion soʻmga yetadi. Bu deyarli ikki barobar oʻsishni anglatadi. Bizning fikrimizcha, eksport salohiyatining ortishi Oʻzbekistonning xalqaro bozorga integratsiyalashuvini jadallashtirib, MIZlarni strategik iqtisodiy oʻsish nuqtalariga aylantiradi. Shuningdek, prognozlangan natijalar MIZlarning mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligi va tashqi savdo balansini yaxshilashda muhim omil boʻlishini koʻrsatmoqda.

**XULOSA**

Oʻzbekiston xorijiy sarmoyadorlar uchun katta salohiyatga ega. Mazkur sohani rivojlantirishda toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar ahamiyatli boʻlib, ular orqali infratuzilmani yaxshilash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish mumkin. Hukumatning investorlar uchun qulay muhit yaratishi va strategik hamkorlikni kengaytirishi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini toʻliq amalga oshirish ustuvor yoʻnalishi hisoblanishi bois, ushbu mexanizmni takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Maxsus iqtisodiy zonalar iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda samarali vosita sifatida namoyon boʻlmoqda. Ularning investitsiya muhitini yaxshilash, soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etish hamda infratuzilmani rivojlantirish orqali chet el va mahalliy investorlarga qulay shart-sharoit yaratishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror oʻsishiga sezilarli hissa qoʻshmoqda.

2. Investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarining samaradorligini oshirish uchun maxsus iqtisodiy zonalarda institutsional va huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Bu borada investorlarga boʻlgan ishonchni oshirish, murakkab ma'muriy toʻsiqlarni kamaytirish hamda investitsiya himoyasini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiya faoliyatini ragʻbatlantirishda fiskal va moliyaviy stimullarni yanada diversifikatsiya qilish zarur. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, investitsiya kreditlari va grantlar tizimini takomillashtirish orqali investitsiya oqimlarini koʻpaytirish mumkin.

4. Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhimdir. Elektron investitsiya platformalari, onlayn ruxsatnomalar va investitsiya monitoringi tizimlari orqali investorlarga qulaylik yaratish, shuningdek, investitsiya jarayonlarini shaffoflashtirish imkonini beradi.

5. Maxsus iqtisodiy zonalar misolida investitsiya siyosatini milliy va mintaqaviy darajada muvofiqlashtirish zarurati aniqlanib, bu mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Mintaqaviy investitsiya strategiyalari, hududlarning oʻziga xos imkoniyatlari va resurslaridan kelib chiqib ishlab chiqilishi kerak.

6. Maxsus iqtisodiy zonalarning investitsion salohiyatini oshirishda xususiy sektor va davlat oʻrtasida samarali hamkorlik mexanizmlari muhim rol oʻynaydi. Bu doirada davlat siyosati va investitsiya loyihalarini rejalashtirishda xususiy sektorning ehtiyojlarini hisobga olish orqali investitsion muhit yanada barqaror va jozibador boʻlishi ta’minlanadi.

7. Tadqiqotda aniqlangan investitsiya jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganda, maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiyalar hajmi va sifati sezilarli darajada oshadi. Bu esa oʻz navbatida milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi ish

oʻrinlari yaratish hamda texnologik yangilanishlarni ragʻbatlantirishga imkon beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1.Oʻzbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar toʻgʻrisida" qonunga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish Qonuni, 05.06.2020 yildagi OʻRQ-620-son.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini qoʻllab-quvvatlashning yangi mexanizmlari haqida"gi Qarori, 30.04.2021 yildagi 785-son.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Maxsus iqtisodiy zonalarning yangi turlarini tashkil etish va investitsiyalarni jalb etish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi Farmoni, 15.12.2022 PF-6890-son.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Investitsiyalarni jalb etish va Maxsus iqtisodiy zonalarning eksport salohiyatini oshirish boʻyicha dasturi toʻgʻrisida"gi Farmoni 20.09.2023 yildagi PF-7025-son.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2025-2027 yillarda Maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etish strategiyasi toʻgʻrisida"gi Qarori, 10.02.2025 yildagi 118-son.

6.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PF-41-son Farmoni

7. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi Yangi Oʻzbekiston strategiyasi [Matn]. –Toshkent: "Oʻzbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.

8. Shavkat Mirziyoyevning "Hozirgi zamon va Yangi Oʻzbekiston" nomli kitobi [Matn]. –Toshkent: "Oʻzbekiston" nashriyoti, 2024. – 560 b.

9. S.G.Ter-Martirosyan. Инвестиционная привлекательность и институциональные факторы свободных зон. "Мировая экономика и международные отношения", 2020, № 2, с. 60–82.

10. Danilov. Институциональные условия привлечения капитала в свободные зоны. "Социально-экономические проблемы современности", 2020,

11. Karlibaeva R.X. Hududlarda investitsion faollikning ahamiyati // «Экономический вестник Узбекистана» журнали.– Тошкент, 2010.4-сон. – Б. 44-45.

12. Umirzoqov J.Maxsus iqtisodiy zonalapda investitsiya muhiti jozibadorligini baholash metodologiyasi i.f.d (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2025.

13. https://datacatalog.worldbank.org/search/dataset/0037742/special-economic-zones-sez.

14. G.T.Qarajanova. Approaches to enhancing regional economies via investment attraction through free economic zones//6 Jan 2024.

2026-yil, aprel. №4-son.

**Mas'ul muharrir:** Beglayev Uchqun
**Musahhih:** Boltayev Nurali
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami:**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy**